

## ADABIY ASARLARNI O'RGANISHDA BIOGRAFIK METODNING AHAMIYATI

*Muharram Muhammadiyeva*

*Arnasoy tuman texnikumi*

*Ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

Mustaqillik yillarida jamiyatimizning deyarli barcha jabhalarida bo'lganidek, ilmu-ma'rifat va ma'naviyat sohasida ham ulkan o'zgarish va yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Jumladan, ma'naviyatimizning ajralmas bir qismi bo'lgan adabiyotimiz rivojiga va uning kelajagiga e'tibor va g'amxo'rlik behad kuchaytirildi. Bunday e'tibor natijasida adabiyotimizni chuqur o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Adabiy asarlarni har tomonlama o'rganishda tarixiy va qiyosiy metodlar bilan bir qatorda biografik metoddan foydalanish ham samarali usul deb o'ylaymiz.

Bizga ma'lumki, yetuk san'atkor shaxsi va ijodi ajralmasdir. Adabiyotshunoslikda badiiy ijod namunasini o'rganish va izohlashda biografik unsurlardan hatto "biografik" deb atalmish butun boshli ilmiy metod ham ishlab chiqilgan. Ammo ba'zi tadqiqotchilarimiz negadir "o'zbek adabiyotshunosligida biografik metoddan foydalanish ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagan" degan fikrni bildirishmoqda. Masalan, mualliflar jamoasi tomonidan yaqinda e'lon qilingan "Kiyik so'qmoqdagi yo'l ovchi" kitobida Muhammad Yusuf tarjimayi holi, shaxsiyati va ijodiyotiga doir ko'plab qimmatli fikr va ma'lumotlar keltirilgan. Bular va umuman, mazkur asar shubhasiz, shoir she'riyati va iste'dodining muhim jihatlari yoritishda jiddiy ahamiyat kasb etadi. Lekin ushbu muhim tadqiqotda o'zbek adabiyotshunosligida "biografik metoddan foydalanish ko'nikmasi yetarlicha shakllanmagan" degan xulosa ham bildiriladi: "adabiyotshunoslar tomonidan yaratilgan ko'plab tadqiqotlarda izchil biografiylik yetishmaydi. Shuning uchun ham milliy adabiyot ilmida badiiy asarni uning muallifi hayoti bilan bog'lab tushunish va tushuntirish tajribasi shakllanmagan", - deya ancha keskin xulosa bildiriladi.

Bizningcha, bunday fikr biroz bahsli ko'rinadi. Negaki, o'zbek mumtoz adabiyotimizni yoki XX asr o'zbek adabiyotini tilga olamizmi – uni dunyo miqyosida tanitgan Alisher Navoiy va Z.M.Bobur kabi buyuk daholarimiz hayoti va ijodini o'rganishda ham ilmiy, tarixiy-qiyosiy metodlar bilan bir qatorda biografik metod unsur-elementlari va usul-shakllaridan keng foydalanganligiga guvoh bo'lamiz.

Yoxud adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shgan boshqa adiblarimiz hayoti va ijodi hamda ularning ko'plab yetuk asarlarining ijodiy, yaratilish tarixini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotshunoslik asarlari bilan tanishganimizda ham ularda tadqiqotchi va mutaxassis - olimlarimiz o'sha shoir-yozuvchilarning shaxsiy hayoti va insoniy taqdiri bilan bevosita bog'liq fakt va holatlardan o'rinli

foydalanganligiga ishonch hosil qilamiz. Aslida, har bir san'at asarida muallif biografiyasi bilan bog'liq hayotiy unsurlar u yoki bu darajada aks etishi tabiiy holdir.

Chunonchi, atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhor bu xususda, jumladan shunday dedi: “Ko'plar qatori men ham o'z tajribalarim, shaxsiy taassurotlarim adabiy asar uchun eng qimmatli material ekanligini tushunib olgunimcha yozuvchilik” da ko'p sarson bo'lganman”<sup>1</sup>.

Yoki mashxur shoirimiz H.Olimjonning ijodini va betakror she'rlarini o'rganishda ham shoirning hayoti va bolalik, yoshlik davrida ko'rgan – kechirganliklarini qanchalik yaxshi bilsak, uning asarlarini shunchalik yaxshiroq tushunishimiz mumkin bo'ladi. Ijodkor ma'lum bir farzandi, muhit hodisasi bo'lganligi uchun ham, u yashagan davrning asosiy tamoyillari, ruhi uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

H.Olimjon ijodiyoti va she'riyatining hayotiy manbalari nimalardan iborat iborat? Uning yetuk ijodkor va shaxs bo'lib ulg'ayishida qanday ijtimoiy-estetik omillar asosiy ro'l o'ynaydi? Bular xususida fikr yuritish uchun H.Olimjon adabiyot maydoniga kirib kelgan og'ir yillarni va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotni ko'z oldimizga keltiraylik. H.Olimjon avlodi ijod olamiga kirib kelgan 20-yillar butun xalqimiz va madaniyatimiz tarixida eng murakkab va ziddiyatli bir davr bo'lganligi biz yoshlarga endi ayon bo'lmoqda.

Masalan, Mirtemir 20-30-yillar adabiy-madaniy muhiti, xususan, H.Olimjonning jo'shqin faoliyatini eslab, u Mixail Svetlovning “Grenada” sini juda yaxshi ko'rinishini, nihoyatda ta'sirchan o'qishi, keyinchalik esa shu she'ni chiroyli tarjima qilganligini ta'kidlaydi.

Insonlarni ozod va obod ko'rishni istagan, hurlikni jon qadar suygan, g'ayrati, matonati ichiga sig'magan, hayotsevar o'smir yigit - “Grenada” qahramoni bilan davr shiddati talab etayotgan hozirjavoblik, safarbarlik, fidoiylik, yangi turmushdan olingan turfa taassurotlar va romantik ehtirolarga to'lib-toshgan Hamid ruhiy yaqinlik his etgan, o'z idealini uning timsolida ko'rgan bo'lsa ajab emas. “Davr murakkab edi, - deb yozadi Zulfiya, - ba'zilar o'zi bilan o'zi, ba'zilar esa atrofdagilar bilan baxslashardi.

Qurilayotgan yangi zamon mashaqqatlari, shiddatlari orasida uning kelajagini juda yorqin tasavvur etish va ishonish hammaga ham birday nasib bo'lavermas edi. H.Olimjon esa o'zi ishonibgina qolmay, boshqalarni ham ishontira olish qobiliyatiga ega edi”<sup>2</sup>. Shoirning quyidagi shiddatli satrlari ham o'sha ishonchdan tug'ilgan:

Dunyo ostin-ustun bo'ldi, Yangi dunyoning  
Qarashlari o'tkir, Hujumlari zo'r,  
Yengilgan dunyoning bag'rini bosib  
Yulduzga intilgan bu davr mag'rur<sup>3</sup>.

H.Olimjon “qizil o’lka” ning o’quv, matbuot dargohlarida, jamoat tashkilotlarida o’ziga singdirilgan g’oyalarni el dardi uchun kuygan hassos qalbi bilan qabul qilar, qurilayotgan yangi hayot “hur turmush” bo’lishiga, yurtimiz “baxtlar vodiysi” bo’lib qolishiga qattiq ishonardi va ana shu umid – ishonch uning ilk ijodining g’oyaviy mavzu-mundarijasini belgilab berdi. Mutafakkirlar ta’kidlaganidek, shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidadir. Binobarin, shoir ruhini va uning asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak. Masalan, Zulfiya ijod olamifga o’tmishdagi ko’plab shoirlar kabi ishq va vafo, sevgi va sadoqatkabi an’anaviy mavzu va tuyg’ularni kuylab kirib keldi. Lekin beshafqat hayot va “yozda yoqqan qorday bevaqt o’lim” baxt qasrini vayron qildi va yosh boshiga og’ir musibat tushdi. H.Olimjonday umr yo’ldoshi – tog’doy tayanchi va tengsiz ustozidan bevaqt judo bo’lgan. Zulfiyaning “Hijroning qalbidam, sozing qo’limda, Men hayot ekanman, hayotsan sen ham” – deya olishi uchun qanchalar ruhiy qudrat va ijodiy jasorat kerak edi. Bu og’ir judolik Zulfiyaning iroda-bardoshini toblab, metindek mustahkam qilgan bo’lsa, uning qalbi va nigohini ham shunchalar tiyraklashtirib, shoirona tafakkurini teranlashtirdi. Hech bir mubolag’asiz aytish mumkinki, Zulfiyaning iste’dodi va badiiy mahorati qanchalar kuchli bo’lsa, shoironing insoniy dard-musibati va ijodiy jasorati ham ulardanda yuksak qudratliroq bo’lgan. “Zulfiyani shoira qilgan, - deydi Erkin Vohidov, - o’z dardli qismati va dardli qismat haqidagi samimiy va ehtirosli nidosi. Uning mehr va sog’inch bilan to’lgan satrlari judolik dardida o’rtangan necha ming yuraklarga malham bo’lganini, necha ming ko’ngil daftariga ko’chirilganini xayol qilmoq kerak”<sup>4</sup>. Bu so’zlarda yorqin iste’dod, ulkan insoniy qalb va dard, ijodiy jasorat va yuksak poetic mahorat mujassam bo’lgan Zulfiya she’riyati va shaxsining yaxlit bir olam ekanligi haqqoniy e’tirof etilgan.

Mustaqillik shoiru adiblarga va barcha san’atkorlarga ozod yurtimizni baland ovoz va g’urur bilan tarannum etish baxtini berdi. Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar sarboni bo’lgan ushbu she’riyat karvoning iste’dodli bir vakili Azim Suyun ham o’z so’zi, ovozi va ohangi bilan ana shu ulkan tarixiy voqeaning mohiyatini va uning ildiz-manbalarini yoritishda poetic mahoratini namoyon etmoqda. Uning “Sohibqiron haykallari poyida” deb atalgan she’riy turkumi fikrimizning dalili bo’la oladi. Chunonchi, “Samarqand” nomli she’rida Sohibqiron bobomizning buyuk maqsadlar sari shaylangan olmos burgut yang’lig’ ulug’vor timsoli shunday tasvirlanadi:

U, o’shanda... Urgut tog’larin  
Zirvasida turardi otda.  
Yer yuzin qanoti ostiga  
Olmoq bo’lgan olmos burgutday

Zarafshon solar gulduros...

“Bas, Samarqand poytaxt bulur, bas!”

Mustaqillik tufayli shon-shavkati tiklangan Amir Temur bobomiz sharafiga onayurtimizning ko'plab shaharlarida qad rostlagan muazzam haykallar qoshida shoir ham o'zini yuksak she'riy ilhom og'ushida sezadi va Vatan sharafi, shukhi uning sadoqatli farzandlari bilan ulug' va qudratli ekanligini anglatganday bo'ladi...Ushbu turkum Amir Temurning Shahrisabz , Samarqand va Toshkentdagi haykallari poyida bitilganligi ham Mustaqilligimizning yil sayin mustahkamlanib, o'zligimizni anglashdagi milliy g'oya va tafakkurimizning ham yuksalib borayotganligidan guvohlik bergandek taassurot qoldiradi. Shoir shaxsini va ijodini chuqur o'rgangan taniqli olim professor Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, bunday hikmatomuz she'rlarda ko'pni ko'rgan va dunyo kezayotgan yetuk bir shoirning boy hayotiy kuzatishlari va salmoqli o'y-mushohadalari ham yorqin ifodalangan<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> A.Qahhor 6-t. 1971.314-bet

<sup>2</sup> Zulfiya. Asarlar. 3-j. – Toshkent: 1986. 12-bet

<sup>3</sup> Olimjon Hamid. O'rik gullaganda. – Toshkent: 1990. 64-bet

<sup>4</sup> Vohidov Erkin. Shoiraning hayot qushig'i. Iztirob. – Toshkent: 1992.245-bet.

<sup>5</sup>Qozoqboy Yo'ldosh. Yo'l odami. – Toshkent: 2011.